

## **SOLIQ NAZORATINING TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI**

*TDIU mustaqil tadqiqotchisi*

***M.Fayzulloev***

**Annotatsiya** mazkur maqolada, korxonalarida soliq nazoratidan o'tkazishda soliq organlarini faoliyatini takomillashtirish va ularni samaradorligini baholash yo'llari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, tadqiqot doirasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, moliyaviy nazorat, soliq tekshiruvlari, audit, soliq auditi, auditning xalqaro standartlari, normativ tahlil, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

**Kirish** Respublikamizda bugungi kungacha olib borilgan islohotlar barcha sohalarni qamrab olib, sohalarning rivojlanishib borishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, har bir faoliyat turi bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, sohaning uslubiy ta'minoti yaratib berildi. Jumladan, soliq nazorati faoliyati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bugungi kunda audit bo'yicha yetarli uslubiy ta'minot mavjudligini ko'rsatmoqda. Mazkur soha bo'yicha qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlari sohaning uslubiy ta'minoti yaratilganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjet va boshqa shu kabi pul fondlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda keng qamrovli iqtisodiy, sotsial va huquqiy munosabatlarni tashkil etish orqali o'zining iqtisodiy maqsadiga erishish uchun majburiy to'lovlarni joriy etish va ularni moliyaviy pul fondlariga undirish mexanizmlarini ishga tushiradi.

Albatta, bu moliyaviy mablag'lar o'z-o'zidan kelmaydi, boshqa tomonidan esa, jalb qilingan moliyaviy mablag'larni maqsadli, manzilli va samarali foydalanish zarurati ham tug'iladiki, davlat va uning vakolat olgan organlari tomonidan nazorat tartibidagi faoliyatlarni olib borishni ham taqozo etadi.

Bu nazorat esa, ko‘proq moliyaviy xarakterga ega bo‘lib, moliyaviy pul fondlariga jalb qilingan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi, ularning maqsadli va manzilligining ta‘minlanganligi hamda samarali foydalanayotganligini nazorat tartibida amalga oshirish mexanizmlarini taqozo etadi. Shu jihatdan olganda bu yerda moliyaviy munosabatlarning o‘ziga xos nazorat shaklidagi ko‘rinishlari paydo bo‘ladi. Aksariyat iqtisodchilar ta’kidlaganidek, moliyaviy nazoratning asosini pul fondlarini shakllantirish jarayonidagi taqsimotlarga, ya’ni yalpi ichki mahsulotning ma’lum bir qismini pul fondlariga jalb qilish orqali moliyaviy resurslarni qayta taqsimlanishiga borib taqaladi. Qayta taqsimlangan yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlash holatining o‘zi esa, nazorat tartibidagi faoliyatni, aniqrog‘i davlatning vakolatli organlarini shakllantirishni va uni amalga oshirishni talab etadi.

Ta’kidlash lozimki, soliq nazorati moliyaviy nazoratning muhim ajralmas qismi hisoblanadi. Soliq nazorati esa, davlatning markazlashgan pul mablag‘larini shakllantirishda jamiyatning ishlab chiqarish sektoridan undiriladigan majburiy to‘lovlarni undirish jarayonida yuzaga keladi. Ya’ni, bu yerda majburiy to‘lovlarni soliq to‘lovchilar tomonidan qonunchilik talablari asosida qanday to‘layotganligini aniqlash uchun soliq nazoratiga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Soliq nazorati mazmunan olganda markazlashgan pul fondlari (davlat byudjeti va boshqa davlatning maqsadli fondlari) bilan bog‘liq yuridik va jismoniy shaxslarga qonun bilan yuklatilgan soliq to‘lovi majburiyatlarining bajarilishi darajasini aniqlash uchun ham zarur bo‘ladi. Soliq nazorati bundan tashqari, soliq to‘lovchilar tomonidan soliq to‘lashdan qochish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovslashning oldini olish, soliqqa oid qonunchiliklarning mohiyatini tushunib yetishi, ular tomonidan qasddan yoki tushunmasdan soliqlarni hisoblash va to‘lash bilan bog‘liq jarayonlarni tartibga solish, davlat byudjeti va boshqa fondlarga tushumlar bir maromda tushishini ta‘minlash va shu kabi jarayonlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq nazorati bundan ko‘rinadiki, iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning muhim moliyaviy instrumenti sifatida yuzaga chiqadi, soliq

nazoratidan qanchalik samarali foydalanish esa, davlatning moliyaviy nazoratining samaradorligini ta'minlaydi.

Davlat soliq xizmati va boshqa vakolat berilgan organlar tomonidan soliq nazorati amaldagi qonunchilikka muvofiq, soliq nazorati soliq to‘lovchilarni hisobga olish, soliq solish ob’ektlarini va soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlarni hisobga olish, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, kameral nazorat, naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji, soliq tekshiruvlari, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash, aksiz to‘lanadigan ayrim turdagи tovarlarni markalash, shuningdek, ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish, davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag‘lari davlat daromadiga o‘z vaqtida va to‘liq tushishini nazorat qilish, boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish va shukabilar shaklida amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Bu yerda garchi soliq to‘lovchilarni hisobga olish, soliq solish ob’ektlarini va soliq solish bilan bog‘liq ob’ektlarni hisobga olish, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish jarayonlari soliq nazorati shakli sifatida qayd etilgan bo‘lsa-da, ular mazmunan soliq xizmati va boshqa organlar (davlat statistika organlari, adliya boshqarmalari, davlat xizmatlari agentligi va sh.k.)ining umumiyl faoliyatini tashkil etadi. Bu jarayonlarni nazorat qilish esa soliq nazorati tartibida amalga oshiriladi.

Soliq nazorati mazmuniga e’tibor beradigan bo‘lsak, O‘zbekiston soliq kodeksida unga vakolatli organlarning soliq to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjaligiga rioya etilishi ustidan nazorat qilishga doir faoliyati soliq nazoratidir<sup>1</sup> degan mazmunda ta’rif keltirilgan bo‘lib, fikrimizcha, soliq nazoratining mazmuni bundanda kengroqdir. Chunki, yuqorida keltirganimizdek, soliq nazorati bu nafaqat iqtisodiy, shu bilan bilan birgalikda

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон республикаси Солиқ кодекси. Т.: Адолат. 2020 йил. 17 боб, 135-моддаси.

[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

**15-to‘plam fevral 2023**

huquqiy va sotsial jarayonlarni ham qamrab oladi. Shu jihatdan olganda bizningcha “soliq nazorati bu- soliq to‘lovchilarning o‘zlariga yuklatilgan soliqqa oid majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilishi ta’minlash maqsadida davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan turli xil usullarga asoslangan holda nazorat tartibidagi faoliyatlarining o‘zaro uyg‘unlashuv jarayonlardir.

**Xulosa va takliflar:** Soliq ma’muriyatchiligi sohasida raqamlashtirishning rivojlanishi soliq nazorati samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va korxonada to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliq tekshiruvlarini o‘tkazishdan chegaralanish, soliq to‘lovchilarga barcha soliqlarni ixtiyoriy ravishda to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar, shuningdek, ularning soliq majburiyatlarini aniqlashtirish, to‘lash uchun imtiyozlar yaratishga o‘tish imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirishning rivojlanishi sharoitida soliq nazoratini va umuman soliq tizimini o‘zgartirish zaruratga aylandi, chunki raqamlashtirish katta ma’lumotlar va raqamli texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Soliq nazoratini rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri bu "katta ma’lumotlar" (Big Date) deb ataladigan texnologiyalarni joriy etishdir. Soliq nazoratini raqamlashtirish asosida takomillashtirish borasidagi Yevropa, Avstraliya va AQSh kabi mamlakatlar tajribasini mamlakatimiz amaliyotiga joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

**Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:**

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Normurzaev U. (2021). Analiz effektivnosti nalogovых lgot i preferensiy v podderjke opredelennyx sektorov s selyu dalneyshego povышениya investitsionnoy privilekatelnosti v Uzbekistane. Ekonomika i obrazovanie, (6), 82–86. izvlecheno ot <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/285>

Normurzaev U. (2021). Puti effektivnogo ispolzovaniya nalogovых lgot dlya podderjki predprinimateley. Ekonomika i innovatsionnye texnologii, (4), 355–362. izvlecheno ot [https://inlibrary.uz/index.php/economics\\_and\\_innovative/article/view/11954](https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954)

Normurzaev U. Tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashda soliq imtiyozlarini berish orqali samarali usullardan foydalanish yo‘llari //Ekonomika i obrazovanie. – 2021. – №. 3. – S. 91-95.